



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-aprel

267-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Chirchiq shahri hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Chirchiq shahar hokimligining 2025-yil 26-martdagi 7/125-sonli xatini, fuqaro Yakubova Mavlyuda Usarovnaning 2025-yil 4-martdagi 202501814000176-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasini o‘rganib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi 198-sonli farmoni, Chirchiq shahri hokimligining 2025-yil 26-martdagi 7/125-sonli xati, fuqaro Yakubova Mavlyuda Usarovnaning 2025-yil 4-martdagi 202501814000176-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fuqaro Yakubova Mavlyuda Usarovnaning 2025-yil 4-martdagi 202501814000176-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, Chirchiq shahar hokimining 2016-yil 25-iyuldagi 269-sonli qarori bilan shaharning 19-sonli “Shodlik” MFY, Lomonosov ko‘chasidan bog‘ barpo etish va obodonlashtirish 10 yil muddatga ijaraga berilgan 0,12 gektar yer maydoni Chirchiq shahri davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni bo‘sh turgan yer maydoni hisoblanishini inobatga olib davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Chirchiq shahri hokimligi (M.Abduraximov) qarorda keltirilgan 0,12 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadida, belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrоров) shahar hokimligining buyurtmasiga asosa, bo'sh turgan 0,12 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev